

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
BOSHQARUVI AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.20/30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI YOSHLAR MUAMMOLARINI O‘RGANISH VA
ISTIQBOLLI KADRLARNI TAYYORLASH INSTITUTI**

MADRAXIMOV ALISHER MAXAMADIBROXIMOVICH

**O‘RTA MAKTABLARDA O‘SMIRLAR O‘RTASIDAGI ZO‘RAVONLIK
(BULLYING) HOLATLARINI OLDINI OLISHNING SOTSIOLOGIK
TAHLILI**

22.00.02– Ijtimoiy tuzulish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

**Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
социологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor Philosophy (PhD) on Sociological
Sciences**

Madraximov Alisher Maxamadibroximovich

О'рта maktablarda o'smirlar o'rtasidagi zo'ravonlik (bullying) holatlarini oldini olishning sotsiologik tahlili.....3

Мадрахимов Алишер Махамадibroхимович

Социологический анализ предотвращения насилия (bullying) среди подростков в общеобразовательных школах.....31

Madrakhimov Alisher Makhamadibrokhimovich

Sociological analysis of prevention of violence (bullying) among teenagers in secondary schools.....59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....64

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
BOSHQARUVI AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.20/30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI YOSHLAR MUAMMOLARINI O‘RGANISH VA
ISTIQBOLLI KADRLARNI TAYYORLASH INSTITUTI**

MADRAXIMOV ALISHER MAXAMADIBROXIMOVICH

**O‘RTA MAKTABLARDA O‘SMIRLAR O‘RTASIDAGI ZO‘RAVONLIK
(BULLYING) HOLATLARINI OLDINI OLISHNING SOTSIOLOGIK
TAHLILI**

22.00.02– Ijtimoiy tuzulish, ijtimoiy institutlar va turush tarzi

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.4.PhD/S80 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kardlarni tayyorlash institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dba.uz/uz/avtoreferatlar), “Ziyonet” Axborot ta’lim portali (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusov Alisher Bobomurodovich
sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abduazimov Oqiljon Utkurovich
Sotsiologiya fanlari doktori
Tolipov Abdug‘affor Abdunabiyevich
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSc.20/30.12.2019.S.23.02 raqamli Ilmiy kengashning 2022 yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45-uy. Tel.: 0(371) 232-60-47; faks: 0(371)239-17-83, e-mail: info@dba.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Ma‘muriy binosi, 11-qavat, 1108-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (45 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45-uy. Tel.: 0(371) 232-60-47; faks: 0(371)239-17-83, e-mail: info@dba.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Ma‘muriy binosi, 11-qavat, 1108-xona.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

M.B.Bekmurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor.

Sh.M.Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari doktori, professor.

T.B.Matibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori.

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqyosida yoshlar, ayniqsa o‘smirlar o‘rtasida yuz beradigan shaxslararo zo‘ravonliklar, maktab o‘quvchilari o‘rtasida yuz berayotgan guruh yoki yakka tartibdagi ta‘qib jamiyatda og‘ir oqibatlarni yuzaga keltiruvchi fojia sifatida baholanmoqda. BSST ma‘lumotlariga ko‘ra, zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlari oqibatida har yili dunyo bo‘yicha 1,3 million odam vafot etadi va bu barcha o‘limlarning 2,5 foizini tashkil qiladi. 15-44 yoshli aholi o‘rtasida o‘lim sabablari orasida zo‘ravonlik to‘rtinchi o‘rinda turadi¹. Bundan tashqari, millionlab odamlar o‘lim bilan tugamagan zo‘ravonliklar – ruhiy, iqtisodiy, jinsiy tajovuzlarning, maktab o‘quvchilari esa, guruh yoki yakka tartibdagi tajovuz, ta‘qib, ajratib qo‘yish, kalaka qilish kabi bugungi rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi hamda kelajakda og‘ir oqibatlarni keltirib chiqaruvchi hodisalarning qurboni bo‘lmoqdalar. Bolalik va o‘smirlik vaqtida zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan bolalar kelgusida o‘zlari ham zo‘ravon bo‘lishlari yoki zo‘ravonlik qurboni bo‘lishlari ehtimoli doimiy saqlanib qoladi. Shu boisdan, o‘smir-yoshlarda zo‘ravonlik va bulling holatlarining oldini olishga doir ilmiy tadqiqotlar dunyo ilmiy jamoatchiligida alohida qiziqish uyg‘otmoqda.

Bugungi kunda maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi zo‘ravonliklar (bulling) hodisasini o‘rgangan “anomiy” va “deviant xulq-atvor” yondashuvlari (E.Dyurkgeym, R.Merton), “ijtimoiy o‘rganish” (A.Bandura) va psixotahlil (E.Fromm), “tajovuzkor xulq” (K.Lorens) nazariy yondashuvlari asosida profilaktikaga doir bir qator dasturlar amalga oshirilgan. Xususan, Olweus Bullying Prevention Programm (Norway), Positive Action (USA), SAVE (Spain), Bulli & Pupe (Bullies and Dolls) (Italy), Donegal (Ireland) dasturlari bugungi kunda maktablarda bulling profilaktikasini tashkil etishga qaratilgan, keng tarqalgan tadqiqot dasturlari hisoblanadi.

O‘zbekistonda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash har doim davlat siyosatining ustuvor vazifasi bo‘lib kelgan. O‘zbekistonda «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyili asosida ishlab chiqilgan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham, ta‘lim tizimini isloh qilish va inson kapitalini rivojlantirish, to‘rtinchi ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan². Maktablardagi ta‘lim-tarbiya muhitini takomillashtirish, yoshlarni milliy qadryatlarimiz ruhida tarbiyalash va ularni umuminsoniy qadriyatlarga mos, odob-axloqli shaxs qilib etishtirish mamlakatimiz o‘rta ta‘lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifadir³. Ushbu rahbariy ko‘rsatmalarga mos ravishda O‘zbekistonda o‘rta ta‘lim maktablarida tarbiya muhitini yanada takomillashtirish, maktab o‘quvchilari, rahbar xodimlari va pedagoglar jamoasi

¹ Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining “Zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha global holat to‘g‘risidagi hisoboti (2014)”. // www.who.int/violence_injury_prevention/violence/status_report/2014

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF №60-sonli Farmoni. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.. <https://lex.uz/pdfs/5841063>

³ Maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi (Prezident Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvar kuni maktab ta‘limini rivojlantirish masalalari bo‘yicha videosektor yig‘ilishidagi ma‘ruzasi) / <https://president.uz/uz/lists/view/4945>

o‘rtasidagi nizoli vaziyatlarni bartaraf etish, bulling holtalarini oldini olish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Ushbu faoliyatni tartibga solish, xususan maktab o‘quvchilari, o‘qituvchilari va rahbar xodimlari o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlarning oldini olish, maktablarda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil qilish, o‘rta ta’lim tizimidagi tarbiya muhitini takomillashtirish orqali tarbiyali, odobli shaxslarni voyaga etkazishga qaratilgan faoliyatning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining qator me’yoriy hujjatlari bilan tartibga solib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda imzolangan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF №60-sonli¹ hamda 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”², O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi³ hamda “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi⁴, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi⁵ Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 14 martda imzolangan PQ-2833-sonli “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari⁶ hamda boshqa qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar bu borada amalga oshirilayotgan faoliyatning me’yoriy huquqiy asoslarini belgilab bermoqda.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik davlatni va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Insonlararo munosabatlarda zo‘rluk va zo‘ravonlik masalalari qadim zamonlardan insonlarni tashvishlantirib kelganligi sababli, dunyoqarashning qadimiy ko‘rinishi bo‘lgan dinlardayoq o‘z aksini topgan. Xususan, Zardushtiylik dinidagi yovuzlik timsoli bo‘lgan Axriman o‘zida barcha salbiy illatlarni, jumladan zo‘ravonlikni ham mujassamlashtirib, insonlarda ushbu hodisaga, ya’ni shaxslararo munosabatlarda ham zo‘rluk ishlatish salbiy holat ekanligi to‘g‘risidagi qarashlarni shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shgan⁷. Keyinchalik paydo bo‘lgan diniy ta’limotlar, xususan mamlakatimizda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan islom dini nuqtayi nazaridan ham, insonning insonga zo‘rluk ishlatishi qat’iy qoralanadi⁸.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF №60-sonli Farmoni. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.. <https://lex.uz/pdfs/5841063>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/4312785>

³ O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida. // <https://www.lex.uz>.

⁵ O‘zR Qonuni. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida. // <https://lex.uz/docs/2387357>

⁶ O‘zR Prezidentining PQ №2833 Qarori. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. // <https://lex.uz/docs/3141186>

⁷ Avesto. Asha alqovi. //»Sog‘lom avlod uchun» jurnali.1996. №5-6.

⁸ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimasini. T.: «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2021y, 632 b.

Zo‘ravonlik hodisasiga ilmiy yondashuvlar dastlab qadimgi dunyo faylasuflari Aflotun va Arastularning¹ ijodida ko‘zga tashlanadi. Keyinchalik o‘rta asrlarda N.Makiavelli, T.Gobs, J.Lokk, J.J.Russo, Ch.Bekkaria, I.Kant, G.Gegel va F.Nitsshelar² zo‘rvonlikni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilganlar. O‘rta asrlarda Markaziy Osiyolik mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy va Abu Rayhon Beruniy va Alisher Navoiylarning ijodlarida ham inson xulqi va insonlararo munosabatlarning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risidagi yondashuvlarni kuzatish mumkin³.

Zo‘ravonlik muammosini falsafada ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganilishi keyinchalik ushbu hodisani sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham tadqiq etilishiga olib keldi. Garchi, ijtimoiy omillarning o‘rnini inkor etmasalarda, dastlabki psixologlar o‘z tadqiqotlarida zo‘ravonlikning ildizlarini insonning qalbidan, uning ruhiyatidan izlab boshlagan edilar. Bu tarzda yondashuvlarni Z.Freyd, K.Xorni, E.Fromm va boshqalar davom ettirishgan va agressiyani izohlashning psixologik yondashuvlarini ilgari surishgan⁴.

Insonlardagi zo‘ravonlik va tajovuzkorlikni uning tabiiy kelib chiqishi, qadim ajdodlaridan o‘tib kelayotgan hayvoniy instinktlar bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qilgan biologik yondashuv namoyondalari sifatida Ch.Lombrozo, K.Lorens, J.Ghodsian-Carpey, J.Philippe Rushton, Meyer-Bahlburg⁵larni ko‘rsatish mumkin.

Zo‘ravonlikni tushunishni to‘liq ijtimoiy hodisalar bilan bog‘lab tushuntirishga intilishlarni T.Gobs va M.Veberning davlat haqidagi ta‘limotlarida⁶, E.Dyurkgeym va R.Mertoning anomiya va deviant xulq-atvor to‘g‘risidagi nazariy yondashuv⁷larida ko‘rish mumkin.

¹ Платон. Государство. / Сочинения в четырех томах. Т. 3 Ч. 1 / Под общ. ред. А.Ф.Лосева и В.Ф.Асмуса; Пер. с древнегреч. — СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та; «Изд-во Олега Абышко», 2007 ; Арасту. Ахлоки кабир. — Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018 йил.

² Makiavelli N. Hukmdor. — URL: [https://ziyouz.uz/jahon-nasri/nikkolo-makiavelli/nikkolo-makiavelli-hukmdor/\(02.08.2020\);](https://ziyouz.uz/jahon-nasri/nikkolo-makiavelli/nikkolo-makiavelli-hukmdor/(02.08.2020);) Гоббс Т. Избранные произведения: В 2 т. М., 1964. Т. 1. С. 292; Локк Дж. Сочинения: В 3 т. /Пер. с англ. и лат. Т. 3/Ред. и сост., авт. примеч. А. Л. Субботин.—М.: Мысль, 1988.; Руссо Ж.-Ж. Общественный договор, или Принципы государственного права. — М.: С. Скирмунт, 1906; Беккариа Ч. О преступлениях и наказаниях. М.: Фирма «Стелс» БИМПЛ, 1995; Кант И. Сочинения. В 8 т. Т. 6. — М.: Чоро, 1994.; Гегель Г. Философия права. — М.: Мысль, 1990; Ницше Ф. Полное собрание сочинений. В 13 т. Т. 5 / Ин-т философии РАН. — М.: Культурная революция, 2005.

³ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlr shahri (Tanlangan asarlar to‘plami). Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993 у.; Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Т.: «Fan», 1968 yil. 1 tom. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. 236-bet; Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. — Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. J.9 454-658 betlar.

⁴ Хорни К. Невротическая личность нашего времени. — СПб.: Питер, 2002; Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. — М.: АСТ, 2016.

⁵ Ломброзо Ч. Преступный человек — М.: Издательство: Мидгард, 2005; Лоренц К. Агрессия (так называемое “зло”): Пер. с нем. М.: Издательская группа “Прогресс”, “Универс”, 1994.; Jilla Ghodsian-Carpey, Laura A. Baker. Genetic and environmental influences on aggression in 4- to 7-year-old twins // International Society for Research on Aggression (ISRA). 1987. P.173-186.; J.Philippe Rushton. Genetic similarity, human altruism, and group selection. // Behavioral and brain sciences. 1989, 503-559.; Meyer-Bahlburg HFL (1984). Psychoendocrine research on sexual orientation. Current status and future options. Prog Brain Res. 1984;61:375-98.

⁶ Вебер М. Избранные произведения // Политика как призвание и профессия. — М.: Прогресс, 1990, стр. 644-706

⁷ Дюркгейм Э. Общественное разделение труда. Метод социологии // М.: Наука, 1991; Merton, Robert K. (August 1, 1968). Social Theory and Social Structure (1968 enlarged ed.). New York, NY, US: Free Press. ISBN 978-0-02-921130-4.

Mustaqil O'zbekistonda sotsiologiya keng rivojlandi va M.Bekmurodov, A.Qaxxorov, A.Xolbekov, M.Ganiyeva, A.Umarov, Sh.Sodiqova, T.Matibayev, O.Abdiazimov, N.Latipova, F.Parmanov, A.Seitov va boshqalar tomonidan jamiyatimizning dolzarb muammolari sotsiologiya fani nuqtayi nazaridan yoritib berildi¹. Jumladan, shaxslararo zo'rvonlikni deviant xulq-atvor ko'rinishi sifatida A.Yunusov, S.Ahrorov va B.Tojiboyevlar ko'rib chiqishgan². Shuningdek ijtimoiy fanlarda Z.Rasulova, N.Sog'inov, A.Komilov, Sh.Olimov, N.Dalimova, N.Qosimova, Yu.Asadov, R.Musurmanov, N.Halilovalar zo'rvonlikni ijtimoiy-psixologik jihatlarini tadqiq etgan bo'lsa, ijtimoiy-pedagogik jihatlarini N.Saydalixodjayeva, D.Ziyadova, V.Andryanovalar, kriminologik jihatlarini I.Karakterov, A.Abdurasulova, M.Usmonaliyev, Z.Amirovlar o'rganishgan³.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy hayotning erkinlashtirilishi hamda davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik fikrini o'rganishga e'tiborni kuchayishi sotsiologiya fanining yanada keng rivojlanish imkonini berdi va buning oqibatida oxirgi yillarda sotsiologiyani tor, shu bilan birga muhim ahamiyat kasb etuvchi yo'nalishlari, jumladan insonlar o'rtasidagi zo'rvonlik holatlarini o'rganishga ham kengroq e'tibor qaratila boshlandi. Ana shunday ilmiy tadqiqot ishlari sifatida T.Narbayeva va X.Ziyayevalarning dissertatsion tadqiqotlarini misol qilib ko'rsatish mumkin⁴.

Olib borilgan tadqiqotlarda xotin-qizlar zo'rvonligi masalalari hamda O'zbekiston o'quvchi-yoshlarida va harbiy xizmatchilarda deviantlik omillari, uning profilaktikasi tahlil qilingan. Shuningdek, o'rta maktablarda bulling hodisasini yuzaga kelishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi xulq-atvordagi ijtimoiy-ruhiy o'zgarishlar xususiyatlari, ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy nazoratning deviantlik holatlariga ta'siri masalalari tahlil qilingan. Biroq, bulling hodisasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti 2020-2021 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi: «Maktab o'quvchilari orasida zo'rvonlik holatlari (bulling) va bunga sabab bo'luvchi omillar»; «Xorijiy davlatlarning yoshlar siyosati» mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida zo'rvonlik (bullying) holatlarini tahlil qilish va oldini olish imkoniyatlarini tadqiq etishdan iborat.

¹ Bekmurodov M. Qonun va jamoatchilik fikri. «Qonun himoyasida», №8, 1997.

² Yunusov A.B. O'smir me'yorni buzsa... Monografiya. T.: A.Qodiriy nomidagi TDMI, 2008; Ahrorov S.Yu. Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq namoyon bo'lishining ijtimoiy xususiyatlari. Sos. f. n. ilm. darajasini olish u-n tay. diss. T., O'zMU, 2009; Tojibayev B. O'zbekiston o'quvchi-yoshlarida deviantlik profilaktik omillarining sotsiologik tahlili. Sos.f.f.d (PhD) ilm. darajasini olish u-n tay. diss. T., O'zR Prezidenti huzuridagi DBA, 2019.

³ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

⁴ Narbayeva T.Q. O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli. Sos.f.d. (DSs) ilm. darajasini olish u-n tay. diss. T., O'zR Prezidenti huzuridagi DBA, 2020; Ziyayeva X.O. Maishiy zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish samaradorligini oshirish mexanizmlari. Sos.f.f.d (PhD) ilm. darajasini olish u-n tay. diss. T., O'zR Prezidenti huzuridagi DBA, 2021.

Tadqiqotning vazifalari:

“zo‘ravonlik” tushunchasini sotsiologiya fani nuqtayi nazaridan tavsiflash;

“zo‘ravonlik” hodisasiga ijtimoiy fanlardagi yondashuvlarni nazariy metodologik jihatdan tahlil qilish;

maktablardagi tarbiya muhitini va bunda zo‘ravonlik (bulling) hodisasining o‘rnini tuzilmaviy tahlil qilish;

o‘rta maktablarda zo‘ravonlik holatlarini oldini olish imkoniyatlarini tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarda bulling profilaktikasiga doir tajribalarni o‘rganish va O‘zbekiston o‘rta maktablarida qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilish;

bulling profilaktikasiga doir zamonaviy usullarni tahlil qilish;

o‘rta maktablarda tarbiya muhitini sog‘lomlashtirish orqali bulling holtalarining oldini olish imkoniyatlarini asoslash.

Tadqiqot obyekti O‘zbekistonda o‘rta maktab o‘quvchilari o‘rtasida yuz berayotgan zo‘ravonlik (bullying) holatlarining oldini olish jarayoni tahlilidan iborat.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston o‘rta maktablarida o‘quvchi-yoshlar o‘rtasidagi zo‘ravonlik (bullying) holatlarining oldini olishga qaratilgan faoliyatni takomillashtirish imkoniyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va tizimli funksional tahlilni o‘z ichiga olgan nazariy sotsiologik usullar hamda amaliy tadqiqotlarni o‘tkazishda anketa so‘rovnomasi usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘smir-yoshlar o‘rtasidagi bulling holatlarini oldini olish tizimini empirik o‘rganish asosida “huquqbuzarliklar profilaktikasi” tushunchasining tizim yasovchi elementlari (huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash; huquqbuzarliklarni aniqlash; huquqbuzarliklarga barham berish; huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini aniqlash; huquqbuzarliklarga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish) hamda zo‘ravonlikni sodir etayotgan shaxs (buller) va uning qurboniga aylanayotgan o‘quvchi-yoshlarning ijtimoiy qiyofasi (motivatsiyasi, xulq-atvor xususiyatlari, o‘zaro munosabatlari, faolligi, ijtimoiylashuvi) ochib berilgan;

o‘rta maktablarda sodir bo‘layotgan shaxslararo bulling muhiti ishtirokchilari (pedagoglar, o‘quvchilar, maktab ma‘muriyati, ota-ona yoki ularni o‘rnini bosuvchilar) da “zo‘ravonlik” hodisasini talqin qilishda bir xil mezonlar (zo‘ravonlik maqsadida vositalardan, shu jumladan, o‘zining jismoniy kuchidan ham foydalanish; o‘quvchiga ruhiy yoki ijtimoiy mazmundagi zarar etkazilganligi; zo‘ravonlik subyektiga zarar etkazish maqsadining mavjudligi) dan foydalanish profilaktika tizimining asosiy elementi ekanligi sotsiologik ochib berilgan;

o‘rta maktablarda bulling holatlarini oldini olishda insonlararo ziddiyatlarni yumshatishning muqobil usullarini (kooperatsiya, kompromiss, konsensus) o‘quvchilar xulqiga singdirish va o‘rta ta‘lim tizimining tarbiyaviy muhitida o‘zaro hurmat ruhini tarkib toptirishning ustuvor ta‘siri aniqlangan;

voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo (ichki ishlar organlari, ta‘limni boshqarish organlari va ta‘lim muassasalari, vasiylik va homiylik organlari,

sogʻliqni saqlashni boshqarish organlari va sogʻliqni saqlash muassasalari, mehnat organlaridan iborat) komissiyalar bilan oila va mahalla institutlarining integrativ hamkorligi orqali oʻsmirlar oʻrtasida bullingning oldini olishga yoʻnaltirilgan sotsiologik model ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Oʻzbekiston oʻrta maktablarida bulling holatlariga sabab boʻluvchi ijtimoiy omillar aniqlangan;

oʻrta maktablardagi oʻquvchi-yoshlar oʻrtasidagi zoʻravonlik (bullying) holatlari, ularni oldini olish imkoniyatlari yoritilgan hamda bugungi kunda Oʻzbekiston oʻrta maktablarida bullingni amalga oshirayotgan va uning qurboni boʻlayotgan oʻquvchi-yoshlarning ijtimoiy qiyofasi ishlab chiqilgan;

oʻrta maktablardagi oʻquvchi-yoshlar oʻrtasidagi zoʻravonlik (bullying) holatlarini oʻrganishga qaratilgan maxsus sotsiologik tadqiqot dasturi va soʻrovnomasi ishlab chiqilib, amaliyotda sinab koʻrilgan;

oʻtkazilgan maxsus tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, respublikamiz oʻquvchi-yoshlarida zoʻravonlik (bullying) holatlari profilaktikasiga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qoʻllanilgan yondashuv va usullarning ilmiy ish maqsadiga muvofiqligi, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan olinganligi, oʻtkazilgan sotsiologik soʻrovda tanlab olingan usulning maqsadga muvofiqligi va tanlov reprezentativligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oʻrta maktablar oʻquvchilari oʻrtasidagi zoʻravonlik (bullying) profilaktikasining zamonaviy xususiyatlari va konseptual asoslarining tizimli tahlil qilinganligi hamda uning natijalaridan ushbu yoʻnalishdagi tadqiqotlarni olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyaning xulosa va tavsiyalaridan oʻrta maktablar oʻquvchilari oʻrtasidagi zoʻravonlik (bullying) profilaktikasiga doir faoliyatda, tarbiyaviy ishlar samadorligini oshirishda, tarbiya muhitini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oʻzbekiston oʻrta maktab oʻquvchilari oʻrtasidagi zoʻravonlik (bullying) holatlari profilaktikasini sotsiologik tahlillari asosida:

oʻsmir-yoshlar oʻrtasidagi bulling holatlarini oldini olish tizimini empirik oʻrganish asosida “huquqbuzarliklar profilaktikasi” tushunchasining tizim yasovchi elementlari (huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash; huquqbuzarliklarni aniqlash; huquqbuzarliklarga barham berish; huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini aniqlash; huquqbuzarliklarga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish) hamda zoʻravonlikni sodir etayotgan shaxs (buller) va uning qurboniga aylanayotgan oʻquvchi-yoshlarning ijtimoiy qiyofasi (motivatsiyasi, xulq-atvor xususiyatlari, oʻzaro munosabatlari, faolligi, ijtimoiylashuvi) toʻgʻrisidagi takliflaridan Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi Yoshlar muammolarini oʻrganish va istiqbolli kardlarni tayyorlash

institutida 2021 yil aprel-may oylarida o'tkazilgan "Maktab o'quvchilari orasida zo'ravonlik holatlari (bulling) va bunga sabab bo'luvchi omillar"ni o'rganish bo'yicha tadqiqot dasturi va so'rovnomasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022 yil 9 iyundagi №4-13-23-13678-sonli ma'lumotnomasi). Bu o'smir yoshidagi yoshlarning o'zaro zo'ravonlik (bulling) sodir etishlari sabablarini aniqlash, oldini olishga doir profilaktik chora-tadbirlarni nazariy asoslash imkonini bergan;

o'rta maktablarda sodir bo'layotgan shaxslararo bulling muhiti ishtirokchilari (pedagoglar, o'quvchilar, maktab ma'muriyati, ota-ona yoki ularni o'rnini bosuvchilar) da "zo'ravonlik" hodisasini talqin qilishda bir xil mezonlar (zo'ravonlik maqsadida vositalardan, shu jumladan, o'zining jismoniy kuchidan ham foydalanish; o'quvchiga ruhiy yoki ijtimoiy mazmundagi zarar etkazilganligi; zo'ravonlik subyektiga zarar etkazish maqsadining mavjudligi) dan foydalanish profilaktika tizimining asosiy elementi ekanligi to'g'risidagi takliflaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida 2021 yil 11 noyabr kuni o'tkazilgan "Mahallada yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangi samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi yig'ilishining 1-son bayoni bilan belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022 yil 9 iyundagi №4-13-23-13678-sonli ma'lumotnomasi). Buning natijasida mahallalarda Yoshlar etakchisi, profilaktika inspektori hamda o'rta maktab pedagogik jamoasi o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishga erishilgan;

o'rta maktablarda bulling holatlarini oldini olishda insonlararo ziddiyatlarni yumshatishning muqobil usullarini (kooperatsiya, kompromiss, konsensus) o'quvchilar xulqiga singdirish va o'rta ta'lim tizimining tarbiyaviy muhitida o'zaro hurmat ruhini tarkib toptirishning ustuvor ta'siriga doir taklifidan o'rta maktablardagi tarbiya jarayonlarida hamkor tashkilotlar bilan amalga oshiriladigan faoliyat natijadorligini oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 9 iyundagi №06-06/1-1747-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu natijalar o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida yuz berayotgan o'zaro zo'ravonlik (bulling) holatlarining oldini olishda hamkor tashkilotlar bilan ishlash samaradorligini oshirishga yordam bergan;

voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo (ichki ishlar organlari, ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, vasiylik va homiylik organlari, sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, mehnat organlaridan iborat) komissiyalar bilan oila va mahalla institutlarining integrativ hamkorligi orqali o'smirlar o'rtasida bullingning oldini olishga yo'naltirilgan sotsiologik model ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 9 iyundagi №06-06/1-1747-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlar o'rtasida yuz berayotgan o'zaro zo'ravonlik (bulling) holatlarining sabablarini nazariy va ilmiy asoslashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot tarkibi kirish, to‘qqiz paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalar va sotsiologik tadqiqot savolnomasidan iborat. Matnning umumiy hajmi 158 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalar, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Maktablarda zo‘ravonlik hodisasini o‘rganishning ilmiy-nazariy tahlili”** deb nomlangan birinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo‘lib, “zo‘ravonlik” va unga o‘xshash “zo‘rlik”, “zo‘ravon”, “tazyiq”, “bosim”, “bulling” tushunchalari, ularning ildizlari sotsiologiya fani nuqtayi nazaridan tavsiflangan, maktablardagi zo‘ravonlik (bulling) hodisasi tuzilmaviy tahlil qilingan va zo‘ravonlik hodisasining nazariy-metodologik jihatlari o‘rganilgan.

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlariga xos bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida zo‘ravonlik ijtimoiy fanlarning aksariyatida u yoki bu nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Xususan, insonlararo munosabatlarning ko‘rinishlaridan biri sifatida sotsiologiya sohasi vakillarini ham, “zo‘ravonlik” tushunchasi qiziqtirib keladi. Ushbu tushunchani keng o‘rgangan tadqiqotchi A.A.Guseynov zo‘ravonlikni “erkin irodaning ishg‘ol qilinishi, insonlararo munosabatning shunday ko‘rinishiki, bunda bir tomon tashqi bosim yordamida ikkinchi tomonga o‘zining irodasini o‘tkazishi” deb ta’riflagan¹. Ayni o‘rinda, A.Guseynov va R.Gasparyanlar ikkinchi tomonning roziligi bilan bosim o‘tkazilishini zo‘ravonlik deb bo‘lmasligini aytib o‘tadilar. Ya’ni, “o‘qituvchi-o‘quvchi, qonun chiqaruvchi-fuqaro” munosabatlarini zo‘ravonlik deb baholash kerakmasligini ta’kidlaydilar². Vaholanki, bu holatlarda ham, bir tomon ikkinchi tomonga tashqi bosim ostida o‘z irodasini o‘tkazadi.

O‘rganishlar natijasidan ko‘rish mumkinki, zo‘ravonlik tushunchasi turlicha talqin qilinadigan, tushuniladigan atama bo‘lib, huquqiy me’yorlarda ham, bu tushunchaga etarli ta’rif berilmagan. Garchi, jinoiy huquqda qator normalarga

¹ Гусейнов А.А. Апресян Р.Г. Этика: Учебник. М.: Гардарики, 2000. 32-б.

² O‘sha joyda

ta'sir ko'rsatuvchi holat bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida ham, ushbu tushunchaga ta'rif berilmaganligi dissertant tomonidan qayd etilgan.

Ilmiy adabiyotlarda zo'ravonlik hodisasiga turlicha yondashuvlar shakllangan bo'lib, keng tarqalgani uni "agressiya" tushunchasi bilan izohlashdir. MDH davlatlarida, jumladan O'zbekistonda ham, ushbu tushuncha ko'proq psixologlar tomonidan o'rganilgan, g'arb davlatlarida esa, agressiya sotsiologlar tomonidan ham o'rganiladi. Ushbu adabiyotlarda "agressiya" - bu individga xos bo'lgan (tug'ma) sifat (yoki qobiliyat) bo'lib, ushbu xususiyat va individning o'rganish qobiliyatiga mos ravishda, o'zini himoya qilishdan tortib, to shafqatsizlikkacha bo'lgan turli (o'rganilgan va ijtimoiy shartli) individual va jamoaviy shakllarda namoyon bo'luvchi xatti-harakat usullari deb tushuntiriladi¹. Ko'rish mumkinki, "tajovuzkorlik" sifatida qabul qilinadigan faol xatti-harakatlarning muayyan shakllari ijoyuyi mazmunda bo'ladi va hatto jamiyat tomonidan ma'qullanadi. Bunga yorqin misol sifatida sport musobaqalaridagi yoki raqobat muhitidagi tajovuzkor xatti-harakatlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Dissertant tomonidan har qanday zo'ravonlikni ilmiy tadqiq qilishda uni boshqa hodisalardan farqlovchi uchta asosiy mezonni ajratib ko'rsatilgan: 1) zo'ravonlik maqsadida vositalardan, shu jumladan o'zini jismoniy kuchidan ham foydalanish; 2) mazlumga ruhiy yoki ijtimoiy mazmundagi zarar etkazilganligi; 3) zo'ravonlik subyektiga zarar etkazish maqsadining mavjudligi.

Umuman zo'ravonlik hodisasiga yondashishda tadqiqot jarayon subyektlaridan kelib chiqib, olimlar ikkita katta yo'nalishga ajraladilar: Gobs, Marks, Veber kabi bir guruh tadqiqotchilar butun jamiyatdagi muammo sifatida qarab, zo'ravonlikni jamiyatdagi ijtimoiy muammolar bilan birgalikda o'rganadilar². Vakillari ko'proq psixologlar bo'lgan ikkinchi guruh olimlar e'tiborlarini ko'proq shaxslararo munosabatlarga, ikkita shaxs o'rtasidagi zo'ravonlikning sabablarini o'rganishga qaratadilar va yuqorida aytib o'tilganidek, zo'ravonlikni agressiya bilan izohlashga harakat qiladilar.

Maktablarda yuz beradigan zo'ravonlik hodisasini tizimli tahlil qilishda tizim yasovchi boshqa elementlar – muhit, madaniyat, tuzilma, oila va mahalla kabilarning o'rnini ham tahlil qilish muhim o'rin tutadi. Maktablarda tobora ko'payib borayotgan o'quvchilar o'rtasidagi zo'ravonliklarni yoritishda ko'proq maktab jamoasi, pedagoglarning no'noqligi, oilada ota-onada pedagogik mahoratning etishmasligi kabi omillar bilan bog'lab tushuntirishga intilishlar ko'p kuzatiladi. Bular ham albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bular aysbergning ko'rinib turgan suv yuzasidagi qismi bo'lib, asl sabablar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimidagi qator o'zgarishlar bilan bog'liq. Xususan, sotsiolog tadqiqotchi A.Yunusov deviant holatlar namoyon bo'lish xususiyatlarini tahlil qilar ekan, bunga jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlar va ularni turlicha talqin qilinishi, jamiyatda o'rnatilgan qadriyat mo'ljallarining aniq emasligi va buning

¹ Meier U. Aggressionen und Gewalt in der Schule. Lit Verlag: Münster. 2003. S. 18

² Гоббс Т. Сочинения: В 2 т. – Т. 2. – М.: Мысль, 1991; Ойзерман Т.И. Маркс: эволюция социологической концепции насилия // Социологические исследования. 1994. № 5. С. 27-34.; Вебер М. Политика как призвание и профессия / Перевод с немецкого и вступительная статья А. Ф. Филиппова; редактор А.А.Рындин. — М. : Рипол-классик, 2018. — 292 с.

natijasida ayneiqsa, o'smir-yoshlar hayotiy qadriyatlarini aniqlashtirib olishda qiyinchiliklarga uchrayotganliklari, jamiyatdagi ijtimoiy institutlar ham, turli kamchiliklar bilan ishlayotganligi kabi holatlar va yana boshqa ko'plab bizning nazarimizdan chetda qolayotgan omillar birgalikda jamiyatda og'ma xulq-atvor namoyon bo'lish ko'rsatkichlarining oshishiga olib kelayotganligini ta'kidlaydi¹. Bu E.Dyurkgeym va R.Mertonlarning "anomiya" g'oyasiga tayangan holda, bugungi kun O'zbekistondagi o'quvchi-yoshlar o'rtasidagi zo'ravonlik (bulling) hodisalarini nazariy tushunish imkonini beradi, deyish mumkin.

Rivojlangan davlatlar tajribasining ko'rsatishicha, maktablardagi zo'ravonlik hodisalarini, jumladan bulling hodisasini oldini olishda ham, profilaktika dasturlarining o'rni katta. Bunaqa dasturlarning birinchisi 1980 yillarda Norvegiyada D.Olveus tomonidan taqdim qilingan². 1991 yilda o'tkazilgan maxsus o'rganishlar ushbu dastur yordamida maktablarda bullingni 50 foizga qisqartirishga erishilganini ko'rsatgan. Bu keyinchalik ko'plab profilaktika dasturlarini ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda bullingni oldini olishga doir tadqiqotlarni olib borayotgan eng taniqli olimlar sifatida D.Olveus (Norvegiya), K.Rigbi (Avstraliya), D.Pepler (Kanada), P.K.Smit (Angliya), K.Salmivalli (Finlyandiya), R.Ortega (Ispaniya), D.Espelage (AQSH) larni ko'rsatish mumkin³.

O'zbekistonda ham, maktab o'quvchilari o'rtasidagi zo'ravonlik hodisalarining ortib borayotganligi, uning oldini olish uchun zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Xususan, xorijiy mamlakatlarda muvaffaqiyat qozongan dasturlarni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning 3 bob 8(g)-bandida "rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rgangan holda umumta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik (buling)ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish" belgilab qo'yildi⁴. Bugungi kunda bu yo'nalishda ham ishlar olib borilmoqda. Jamiyatdagi muammolarni klassik va zamonaviy sotsiologiya nazariyalariga tayanib, rivojlangan davlatlar tajribasida ijobiy samara bergan metodikalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib qo'llash orqali ijobiy yutuqlarga erishish mumkin. Jumladan, umumta'lim muassasalarida tobora avj olib borayotgan zo'ravonlik (buling)ning oldini olishda ham. Sotsiologiya yo'nalishida tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar ushbu jihatlarga asosiy e'tibor qaratishlari bugungi kunning talabi bo'lib turibdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**O'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik holatlari profilaktikasining o'ziga xosligi**" deb nomlanib, uchta paragrafda O'zbekiston o'rta ta'lim muassasalarida zo'ravonlikning oldini olish tizimi, bu

¹ Yunusov A.B. Ijtimoiy me'yordan og'ish sabablari. // Ijtimoiy tadqiqotlar. 2020. №1, 49-58-betlar.

² Молчанова Д.В., Новикова М.А. Противоположное школьному буллингу: анализ международного опыта. М.: НИУ "Высшая школа", 2020. – 4- б.

³ O'sha asar, 4-5 b.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/4312785>

borada ilg'or xorij tajribasi hamda zo'ravonlik holatlari profilaktikasining zamonaviy usullari tahlil qilingan bo'lib, O'zbekistonda bulling profilaktikasini tashkil qilishga doir ilmiy asoslangan taklif va mulohazalar ilgari suriladi.

Ma'lumki, jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlarining har qanday ko'rinishlari, jumladan bulling hodisasining yuz berishini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni ilmiy o'rganigan holda amaliyotga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, muammolarning oldini olish va xavf omillarini bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, pedagogik, psixologik tadbirlar kompleksidan iborat bo'lgan profilaktika tadbirlarining o'rni beqiyosdir.

O'rta ta'lim muassasalarida deviant holatlar profilaktikasini sotsiologik tahlil qilish uchun avvalo mavjud holatni kompleks o'rganish, mavjud zamonaviy profilaktika tajribasi, jumladan xorijiy mamlakatlardagi ilg'or usullarni tahlil qilish va O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini ham har tomonlama tahlil qilishni talab etadi. Ushbu bobda dissertant o'rta ta'lim muassasalarida bulling hodisasini oldini olishga qaratilgan profilaktika tadbirlarini tashkil qilinganligi, mavjud tizimning sotsiologik tahlili va mavjud ilg'or xorijiy tajribalarni ko'rib chiqqan.

Xususan, mustaqillikning dastlabki yillarida huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyatni tashkil qilishda xalqimizga xos ijobiy xususiyatlarga tayangan holda, zamonaviy fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biri bo'lgan – inson huquqlarini himoya qilishga keng e'tibor qaratganligi, bunda ayniqsa xalqning huquqiy madaniyatini o'stirish borasida qator tadbirlarni amalga oshirganligi va bu o'z vaqtida ijobiy samara berganligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichlari yangi-yangi yondashuvlarni, standartlarni, me'yorlarni va talablarni yuzaga keltirganligi, bu esa, yangi muammolarni paydo bo'lishiga sabab bo'lganligi, ularni bartaraf etishning yagona yo'li zamon bilan hamnafas bo'lish va hayotiy muammolarni echishning yangicha usullarini o'ylab topishni, jumladan bulling profilaktikasida ham, taqozo etayotganligini ko'rsatib beradi.

Bu borada, 2014 yil 14 mayda Birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan imzolangan O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni¹ hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 14 martda imzolangan PQ-2833-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari² bu borada amalga oshirilgan dolzarb qadam bo'lganligi, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish uchun zamonaviy ilm-fan nuqtayi nazaridan dolzarb deb baholanayotgan chora-tadbirlarni qo'llashning ko'zda tutilganligi bu borada amalga oshiriladigan faoliyatga huquqiy poydevor vazifasini o'tab berishi isbotlab berilgan.

¹ O'zR Qonuni. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida. // <https://lex.uz/docs/2387357>

² O'zR Prezidentining PQ №2833 Qarori. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. // <https://lex.uz/docs/3141186>

O‘zbekiston Respublikasida har qanday ko‘rinishdagi huquqbuzarlik holatlari profilaktikasi tizimini tushunib olish uchun, avvalo ushbu hodisaning rasmiy izohini tahlil qilish lozim. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi” tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunida izoh berilgan: “huquqbuzarliklar profilaktikasi — huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi”¹. Ushbu ta’rifga tayangan holda, tadqiqotchi O‘zbekistonda “huquqbuzarliklar profilaktikasi” tushunchasining tizim yasovchi elementlari quyidagilardan iborat ekanligini taklif qiladi:

- 1) huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash;
- 2) huquqbuzarliklarni aniqlash;
- 3) huquqbuzarliklarga barham berish;
- 4) huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini aniqlash;
- 5) huquqbuzarliklarga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishdan iborat.

Aynan ushbu ta’rifning o‘zida yana huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy ilm-fan talablariga mos ravishda umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik ko‘rinishlarda amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘rta maktablarda o‘quvchilar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni asosida tashkil qilinadi². Qonuniylik, insonparvarlik, tizimlilik, oilani qo‘llab-quvvatlash va u bilan o‘zaro hamkorlik qilish hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga etmaganlarning tarbiyasiga yakka tartibda yondashishni O‘zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy prinsiplari³ sifatida belgilab berilgan ushbu qonunda mazkur faoliyatining aossiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilar dissertant tomonidan ajratib ko‘rsatilgan:

- voyaga etmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;
- voyaga etmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash;
- voyaga etmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;
- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga etmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish;

¹ O‘zR Qonuni. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida. // <https://www.lex.uz/docs/2387357>

² O‘zR Qonuni. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida. // <https://www.lex.uz/docs/1685726>.


³ Shu qonun. 5-modda.

- voyaga etmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish¹.

Ushbu qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida voyaga etmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi tizimiga jalb qilingan mas‘ul tashkilotlarga voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar, ichki ishlar organlari, ta‘limni boshqarish organlari va ta‘lim muassasalari, vasiylik va homiylik organlari, sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari va mehnat organlari kiritilgan. Shu bilan birga qayd etish lozimki, O‘zbekiston jamiyatida oila va mahalla institutlari o‘smirlar tarbiyasi bilan bog‘liq har qanday faoliyatda muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan, ushbu qonunda oila, ayniqsa ota-ona va boshqa vasiylarning voyaga etmaganlar huquqbuzarliklar profilaktikasida tutgan o‘rni alohida moddada aks etgan.

1-chizma

O‘zbekiston Respublikasida voyaga etmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi tizimi



2-chizmadan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasining voyaga etmaganlar huquqbuzarligi tizimida ta‘lim muassasalari, xususan o‘rta maktablarning o‘rni beqiyos. Ushbu qonunning 13-moddasiga ko‘ra, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari hamda boshqa ta‘lim muassasalari o‘z vakolatlari doirasida huquqbuzarliklar profilaktikasining barcha ko‘rinishlarini – umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik amaliyotdan foydalanishi ko‘zda tutilgan².

¹ Shu qonun. 4-modda.

² Shu qonun 13-modda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi, qonunlar va boshqa qator me‘yoriy hujjatlar talablarini bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining ichki tartib va axloq-odob qoidalari” ishlab chiqilgan va tasdiqlangan¹. Ushbu qoidalarning 19 (a) bandiga binoan o‘quvchilarga ta’lim muassasasida va uning hududida “o‘zgalarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yoki psixologik tazyiq o‘tkazish” ta’qiqlanadi. Shuningdek, o‘quvchilarning yurish-turishlari va axloq-odobini tartibga solishga qaratilgan qator talablar keltirilgan mazkur qoidalarning 21-bandida tartibbuzarlarga nisbatan qo‘llaniladigan intizomiy jazo choralari tizimi ko‘rsatib o‘tilgan.


Mazkur bandning tizimli tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bu erda ayrim tartibsizliklar va noto‘liqliklar mavjud. Xususan, 3-bosqichda boshqa sinfga o‘tkazish ko‘rsatib o‘tilgan, 4-bosqichda esa, sinf jamoasi oldida muhokama qilish aytib o‘tilmoqda. Bu jazo turlari aslida vaziyatga mos ravishda bir bosqichdagi muqobil sifatida qaralishi lozim. Shuningdek, qoidalarning 22-bandida qoidabuzarliklar O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Xotin-qizlar qo‘mitasi boshlang‘ich tashkilotlari va maktabning kuzatuv kengashlarida ham muhokama qilinishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘quvchi-yoshlar o‘rtasida zo‘ravonlik holatlari (bulling) profilaktikasida aynan ushbu band muhim o‘ringa ega bo‘lib, sababi aynan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi maktab etakchilari zimmasiga maktab psixologlari bilan birgalikda “o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida tazyiq va zo‘ravonlikni oldini olishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini olib borish hamda so‘rovnomalar o‘tkazish” vazifasi belgilab berilgan². Ya’ni, o‘quvchilar o‘rtasidagi zo‘ravonliklar profilaktikasi bilan aynan maktab etakchilar shug‘ullanishlari lozim edi, hozirgi kunda bu vazifa maktab direktorining yoshlar va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatildi. Shu jihatlarni e’tiborga olgan holda, o‘rta maktablarda huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlashga ko‘maklashuvchi 2-chizmada aks etgan tizimni tavsiya qilinadi.

2-chizma

¹ O‘zR XTVning 2020 yil 28 maydagi 131-son buyrug‘i. “Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining ichki tartib va axloq-odob qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”.

² O‘zR XTV va O‘zbekiston yoshlar ittifoqining 2020 yil 16 sentyabrdagi 38QQ-son qo‘shma qarori. “O‘zbekiston yoshlar ittifoqining umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish va takomillashtirish to‘g‘risida”. 7.7-band.



O'rta ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan zo'ravonliklar profilaktikasini zamonaviy darajaga olib chiqish uchun, avvalambor xorij tajribasini nazariy jihatdan tahlil qilish talab etiladi. Bullinga qarshi ishlab chiqilgan va muvaffaqiyat keltirgan xorijiy mamlakatlardagi asosiy dasturlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktablardagi zo'ravonliklarning oldini olishda o'qitish va ijobiy ta'sir qiluvchi ma'lumotlar bilan ta'minlash, o'quvchilar umumjamoasining axloqiy va axloqiy qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan dasturlar ko'proq samara keltirgan. Bolalarga do'stlik, hurmat, o'zaro yordamni o'rgatish, o'z hayotiga va boshqa odamlarning hayotiga mas'uliyatli munosabatni, jamoaviy turmush tarzining qadriyatlarini singdirish kerak. Bugungi kunda bulling holatlariga yondashuv amaliyoti ko'proq assimetrik bo'lib, birinchi navbatda bezorilikning faol ishtirokchilariga, jabrlanuvchi yoki tajovuzkor shaxsiga e'tibor qaratilmoqda. Bullingning "befarq kuzatuvchi" guvohlarining sinfdoshlar yoki maktabdoshlar orasida ko'pligi butun jamoada muammolar mavjudligini ko'rsatsada, maktab jamoasining qolgan a'zolari ko'pincha e'tibordan chetda qolishadi.

Umuman olganda, bulling ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ta'lim jarayoni ishtirokchilarining xavfsizligiga tahdid solishini hisobga olish kerak. Bullingning tez orada namoyon bo'luvchi va uzoq davom etuvchi oqibatlari o'quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maktablarda bullingni bartaraf etish va oldini olishga qaratilgan tadbirlar keng qamrovli bo'lishi kerak. Zo'ravonliksiz ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarning rivojlanishi va o'zini o'zi anglashiga hissa qo'shish, ularda sog'lom, xavfsiz hayot tarzini shakllantirish bu jarayonning asosiy maqsadi bo'lishi kerak.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Maktablarda tarbiya muhitini takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlanadi va uchta paragrafdan iborat. Ushbu bobda maktablarda tarbiya muhitini tashkil etishning ahamiyati, o'quvchilarda

zo‘ravonlik holatlarini oldini olish vositalari hamda zo‘ravonlik profilaktikasini yanada takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Ma‘lumki, maktabda ta‘lim jarayoni bilan birga tarbiya jarayoni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni tarbiyalashning muhimligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday degan edilar: “Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”¹.

Maktab o‘quvchilari o‘rtasida bulling hodisasini oldini olishda maktabdagi tarbiya muhiti, profilaktika vositalari va usullari, ularning tashkil qilinganlik holati kabilar muhim o‘rin tutadi. Uchinchi bobda tadqiqotchi aynan ushbu jihatlarni bevosita O‘zbekiston maktablarida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga tayangan holda tahlil etgan².

Bulling hodisasi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tevarak-atfrofdagi ijtimoiy munosabatlar bilan, o‘zi paydo bo‘lgan va rivojlanayotgan ijtimoiy muhit bilan chambarchas aloqadorlikda bo‘ladi. Amerikalik tadqiqotchilar D.Kornell va K.Bredshaular maktab muhitida zo‘ravonlik holatlarini kamaytirish oson ish emasligini va bu maktab iqlimini yaxshilash hamda uning atrofida zo‘ravonlikka munosabatni o‘zgartirishga qaratilgan kompleks tizimli chora-tadbirlarni talab qilishini ma‘lum qilganlar va maktabda tizimli ravishda bullinga qarshi kurash olib borilishi ushbu hodisani 20-25 foizgacha kamaytirishini isbotlab berganlar³.

Ma‘lumki, “ta‘lim muhitini ijtimoiy, madaniy, shuningdek ta‘lim muassasasidagi maxsus tashkil etilgan psixologik va pedagogik sharoitlar majmui sifatida tavsiflash mumkin, ularning shaxs bilan o‘zaro ta‘siri natijasida shaxsning shakllanishi sodir bo‘ladi”⁴.

Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan 2021 yil aprel-may oylarida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko‘ra⁵, ta‘lim muassasasida zo‘ravonlik ehtimoli to‘g‘ridan to‘g‘ri va juda kuchli tarzda oiladagi ijtimoiy-psixologik muammolar bilan xususan, oiladagi zo‘ravonlik munosabatlari tajribasi, ota-onalar bilan iliq munosabatlarning yo‘qligi, o‘zaro

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/649>

² Sotsiologik so‘rov 2021 yil may-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan o‘tkazilgan va tadqiqotda dissertatsiya muallifi ham ishtirok etgan. Tadqiqotga respublikaning 1200 nafar yuqori sinf o‘quvchilari jalb qilinib, representativlik ta‘minlangan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahridagi maktablarning 9, 10, 11-sinf o‘quvchilaridan olingan ma‘lumotlar qayta ishlangan.

³ Cornell D., Bradshaw C. From a Culture of Bullying to a Climate of Support: The Evolution of Bullying Prevention and Research. // <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.17105/spr-15-0127.1?scroll=top&needAccess=true>

⁴ Тарасов С.В. Образовательная среда: понятие, структура, типология. // <https://cyberleninka.ru/article/n/obrazovatel'naya-sreda-ponyatie-struktura-tipologiya>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan 2021 yil aprel-may oylarida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovda mamlakatning 12 ta viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahridagi maktablarning 1200 nafar 9, 10, 11-sinf o‘quvchilari ishtirok etdilar.

mehrsizlik va oila a'zolarining o'zaro birlashishi quyi darajada ekanligi, bola va boshqa oila a'zolari ustidan qat'iy nazorat o'rnatilganligi, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlashning etishmasligi kabilarga bog'liq ekanligi aniqlangan.

Maktab o'quvchilarining yoshlar orasida zo'ravonlikning kelib chiqishiga oiladagi qaysi omillar ta'siri yuqori bo'lishi bo'yicha fikri o'rganilganda, respondentlarning 30,5 foizi – oilada muhabbatning etishmasligi, 29,7 foizi – oilaviy nizolar (janjallar), 16,6 foizi – oiladagi ichkilikbozlik va giyohvandlik, 10,6 foizi – yosh oila a'zolarining hissiyotlariga befarqlik, 8,6 foizi – oilaning to'liq emasligi va 3,9 foizi – boshqa omillarni sabab sifatida ilgari surishgan (1-rasm).

1-rasm

Respondentlarning fikriga ko'ra, oiladagi quyidagi omillar bulling kelib chiqishiga sabab bo'ladi



O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning salbiy xatti-harakatlari ko'pincha bolalarda zo'ravonlikka moyillikning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bulling ko'pincha bolalarni qattiq tarbiyalash va ularning ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirish holatlari tez-tez bo'lib turadigan oilalardan kelib chiqadi.

O'quvchilarning maktabdagi bullingga aralashib qolishiga ota-onalar ta'siri yuzasidan respondentlarning fikri o'rganilganda, ularning uchdan bir qismiga yaqini kattalarning bolaga nisbatan qo'pol va salbiy muloqoti (28,2%), haqorat va haddan ziyod tanqid (28,2%), xohish va ehtiyojlarga qarshi bo'lish (26,5%), haddan tashqari buyruqbozlik va ayblovlar (14,8%) kabi omillar salbiy oqibatlariga olib kelishini ta'kidlaganlar.


Ma'lumki, tajovuzkor o'quvchining xulq-atvoriga oiladan tashqari atrof-muhitdagi omillar, jumladan, Internet, do'stlar va tanishlar ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Respondentlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda zo'ravonlikning asosiy tashviqoti Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda. Maktab o'quvchilarning 77,3 foizi Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida zo'ravonlikni targ'ib qilishning asosiy vositasi deb hisoblasa, 9,3 foizi – radio va televideniye, 5,3 foizi – gazeta va jurnallar, 6,2 foizi boshqa manbalarni ko'rsatishgan. Shuningdek, respondentlarning deyarli 25 foizi Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tajovuzkor video yoki yangiliklarni tomosha qilishlari ma'lum bo'ldi.

Respondentlarning uchdan biri (31,7%) ga yaqini maktab o'quvchilari va yoshlar orasida bulling holatlari Internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida sodir bo'lishini ta'kidlagan bo'lsalar, yana shunchasi (31,7%) “do'stlar va tengdoshlar” bunga ta'sir ko'rsatishini ma'lum qilganlar. Shuningdek, respondentlarning 22,3

foizi “o‘z xohishiga ko‘ra” va 7,7% “kattalar va tanishlar”, 3,9% “ota-onalar va qarindoshlar” ta‘siri ostida zo‘ravonliklar sodir etilayotganligini ma‘lum qilganlar (2-rasm).

2-rasm

Respondentlarning fikricha, maktab o‘quvchi-yoshlari o‘rtasida zo‘ravonlik holatlari asosan quyidagilar ta‘siri ostida sodir etiladi




O‘zbekistonning umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarga nisbatan bulling holatlari 11 – 12 yosh oralig‘ida boshlanadi, 13 – 15 yosh oralig‘ida tez-tez uchraydi va 18 yoshgacha davom etishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, har bir maktabda yolg‘iz yoki guruh bo‘lib yuruvchi tajovuzkor yoshlar borligi kuzatilib, so‘rovnoma ishtirokchilari tomonidan (44 foiz) himoyaga va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj o‘quvchilar borligini ta‘kidlaganlar, respondentlarning 19 foizi o‘zlariga nisbatan zo‘ravonlik holatlari bo‘lganligini ta‘kidlaganlar.

Bugungi kunda umumta‘lim maktablarida bullingning qaysi turlari ko‘proq uchrashi o‘rganilganda, o‘quvchilarning 20,8 foizi ushbu savolga javob berishda qiynalib, 79,2 foizi bulling turini aniq ko‘rsatgan. Xususan, respondentlarning deyarli har beshtadan biri 19 foizi g‘iybat va tuhmatning tarqalishini ko‘rsatganlar (3-rasm). Tadqiqot natijalaridan ma‘lum bo‘ladiki, umumta‘lim maktablarida bugungi kunda o‘quvchilar o‘rtasida bulling hodisasining barcha ko‘rinishlari yuz bermoqda.

3-rasm

Yoshlarning maktabda asosan zo‘ravonlikning qaysi turi yuz berganligining guvohi bo‘lib, o‘zi undan aziyat chekkanligi




Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ladiki, o'smir-yoshlarda o'z tengdoshlaridagi boshqalardan ajralib turishga intilish, o'zini ko'rsatish istagi ko'proq o'zaro kelishmovchiliklar va zo'ravonliklarga sabab bo'lmoqda (35,4%). Bu bir tomondan shu yoshdagilarga xos psixologiya bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan mustaamlaka davri va undan keyingi mustaqillikning dastlabki yillarida barcha uchun umumiy bo'lgan o'rta ta'lim tizimini saqlanib kelayotganligi bilan ham bog'liq. Ya'ni, sobiq ittifoq davridan saqlanib kelgan o'rta ta'lim tizimida barcha o'quvchilar yagona davlat maktablarida o'qishi, xususiy maktablarni rivojlantirishga etarli e'tibor berilmasligi natijasida jamiyatdagi chuqurlashib borayotgan tabaqalashuv maktablarda ham aks eta boshladi, xususiy maktablar juda kamligi va nihoyatda qimmatligi sababli, turli tabaqalarga mansub oilalar farzandlari bitta maktabda, bir sinfda o'qishga majbur bo'lib qolmoqda. Iqtisodiy imkoniyati yuqoriroq bo'lgan oiladan bo'lgan o'quvchilar o'qituvchilarning barcha talablarini bajara olish imkoniyatiga ega ekanligi maktablarda korrupsiya holatlarini, o'quvchilarga nisbatan turlicha yondashishlarni shakllantirib qo'ydi. Bu esa, jamiyatdagi ushbu o'ziga xosliklarni chuqur anglamagan o'smir-yoshlarda iqtisodiy ahvoli yuqoriroq bo'lgan tengdoshlariga nisbatan alamzadalikni keltirib chiqarmoqda.

O'zbekistondagi umumta'lim maktab tizimida zo'ravonlik holatlarining oldini olishga qaratilgan turli tadbirlar amalga oshirilib ular odatda umumiy xarakterga ega. Ko'proq hodisa sodir bo'lgach, uning oqibatlari bilan kurashiladi. Vaholanki, bulling holatlari oldingi bo'limlarda ko'rib o'tilganidek, tizim bilan bog'liq muammo bo'lib, unga qarshi kurashda tizimli yondashuv amalga oshirilmasa, bartaraf etish qiyin. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, bulling muammosini hal qilishga maqsadli yondashuvchi ta'lim muassasalari sanoqlidir.

Tadqiqotda ishtirok etgan o‘quvchilarning har uchtdan biri (28,2%) agar ular maktabda zo‘ravonlik holatiga duch kelgan taqdirda birinchi navbatda sinf rahbari yoki maktab o‘qituvchisiga murojat qilishlarini bildirishgan. Bu holat albatta, O‘zbekiston maktablarida zo‘ravonliklar profilaktikasida muhim omil hisoblanadi. Ya’ni, bulling profilaktikasida o‘rta maktablar o‘qituvchilarining xabardorlik darajasini oshirish orqali ushbu holatlarning oldini olishda ma’lum muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Biroq, afsuski bugungi kunda butun dunyoda, shu jumladan O‘zbekistonda ham bulling nafaqat maktab o‘quvchilari orasida, balki o‘qituvchilarning ham zo‘ravon va jabrlanuvchiga aylanishi holatlari kuzatilmoqda.

O‘qituvchilarning o‘quvchilarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari yuzasidan respondentlarning fikri o‘rganilganda, ularning 22,2 foizi maktabda o‘qituvchilari tomonidan o‘quvchilarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari 1-2 marotaba bo‘lganligini, 6,3 foizi – bunday holatlar tez-tez sodir bo‘lishini, 60,6 foizi – bu kabi holatlarga duch kelmaganliklarini ta’kidlashgan (4-rasm).

4-pacm



Biroq, respondentlar “Siz o‘qituvchilar tomonidan o‘zingizga yoki boshqa o‘quvchilarga nisbatan qanday zo‘ravonlik turlariga duch kelgansiz?” degan savolga, yoshlarning 23,3 foizi – bahoni sun’iy kamaytirish, 17,4 foizi – haqorat, 13,7 foizi – fikr bildirishni taqiqlash, 13 foizi – adolatsiz ayblovlar, 7,2 foizi – qo‘rqitish va kamsitish, 5,5 foizi – jismoniy zo‘ravonlik kabi holatlarni ko‘rsatishgan (14-rasm).

Tadqiqotda ishtirok etganlarning ushbu savolga javoblaridan ma’lum bo‘ladiki, bugungi kunda o‘rta ta’lim maktablarida bulling nafaqat o‘quvchilarning bir-biriga nisbatan, balki o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarga nisbatan ham mavjud. Ayniqsa, katta yoshlilarning maktab o‘quvchilariga nisbatan jismoniy va jinsiy ko‘rinishdagi zo‘ravonliklar sodir etish holatlarining mavjudligi ushbu holtalarni oldini olish uchun jiddiyroq yondashish lozimligini ko‘rstaadi. Xususan, o‘rta maktablarni videokuzatuv moslamalari bilan ta’minlashni oxiriga etkazish, bunda videokameralar bilan maktabning barcha hududlari va xonalarini qamrab

olish, videoyozuvlarni xolis shaxslar va tashkilotlar nazoratida bo'lishiga erishilishi lozim.

Bugungi kunda maktab o'quvchilari o'rtasida bulling holatlarining ko'payishiga ta'sir ko'rsatayotgan omillardan yana biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi bilan raqamli texnologiyalar orqali ma'lum bir shaxsga nisbatan tajovuzkor harakatlar majmuasi bilan tavsiflangan kiberbulling hodisasidir. Bu Internetda, mobil aloqa, ijtimoiy tarmoqlar, xabar almashish platformalari, o'yin maydonlari va h.k. orqali namoyon bo'ladi. Bu erda bulling qo'rqitish, g'azablantirish yoki sharmanda qilish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu turdagi bullingning tezkor ommalashib borishining sababi, noma'lumlik va foydalanuvchilarning ko'pligi bilan bog'liq. Bu erda zo'ravon vaziyatni ko'proq nazorat qiladi, jazo xavfi kamayadi, jabrlanuvchining xavotiri kuchayadi, chunki har safar zarba qayerdan kelishi noaniq. Shuni ta'kidlash kerakki, haqiqiy jinoyatchini, uning qayerdaligini yoki ta'qibni qo'zg'atuvchini aniqlash tobora qiyinlashmoqda.

So'rov natijalariga ko'ra, kiberbulling tushunchasi maktab o'quvchilari orasida keng tarqalmagan bo'lsada, respondentlarning deyarli har o'ntadan biri (8,2%) ijtimoiy tarmoqlarda do'stlar va tanishlar tomonidan bulling holati bo'lishi mumkinligini bildirishgan, 4,7 foizi – bugungi kunda kiberbulling ijtimoiy tarmoqlarda mavjudligini, 49,2 foizi – har qanday shaklda zo'ravonlikka duch kelmaganligini, 27,8 foizi – kiberbulling bilan to'qnashmaganini ma'lum qilib, 10,1 foizi javob berishga qiynalgan.

O'rta maktablarda umumiy bulling profilaktikasini tashkil qilish doirasida maktab ma'muriyati va o'qituvchilardan, boshqa mas'ullar va ota-onalardan kiberbulling holatlariga ham e'tibor qaratishlari talab etiladi. Ma'lumki, kiberbulling profilaktikasi maxsus tayyorgarlikni talab etishini e'tiborga olgan holda, pedagogika yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot institutlari ushbu holtalarni oldini olish bo'yicha O'zbekistonga moslashtirilgan tarbiya metodikalarini ishlab chiqishlari va pedagoglar hamda ota-onalarga yordam sifatida tarqatishlari lozim.

O'zbekiston o'rta maktablaridagi zo'ravonlik holatlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bu holatda maktab ma'muriyati, pedagoglar jamoasi, yoshlar tashkilotlari o'quvchilarning ishonchiga kira olmayaptilar. O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan maktab o'quvchilariga bulling ta'sirining salbiy asoratlarini engishda ularga birinchi navbatda ota-onalar va qarindoshlar (36,7%) yaqindan yordam berishi mumkin. Bu borada maktab psixologlaridan respondentlarning har to'rttadan biri (24,2%) najot kutadi.

Zo'ravonlik muhitini bartaraf etish va uning oqibatlarini yumshatishda birinchi o'rinda faoliyat olib borilishi kutiladigan o'qituvchilar va murabbiylar, afsuski tadqiqotda ishtirok etganlarning bor-yo'g'i 12,5% ning ishonchii qozona olgan. Xorijiy davlatlarda keng qo'llaniladigan tajribalarda ushbu holatlarda keng foydalaniladigan do'stlar (7,4%), sinfdoshlar (5,9%) yoki yoshlar etakchilari (4,5%) yordami esa, juda ham kichik ko'rsatkichlarni tashkil qilmoqda.

O'zbekiston maktablarida bulling holatlarini oldini olishda hamda uning oqibatlarini yumshatishda, ishtirokchilarni murakkab ruhiy vaziyatdan chiqib olishlari va maktabda barqaror ijobiy ruhiy muhitni muvaffaqiyatli tarkib

toptirishda bugungi kunda deyarli foydalanilmayotgan “tengdosh tengdoshga” tamoyilidan kengroq foydalanish lozim. Bu oʻrta maktablarda bulling holatlarini oldini olish ishiga ijobiy taʼsir koʻrsatishi mumkinligini rivojlangan davlatlar tajribalari ham yaqqol isbotlamoqda.

XULOSA

Dissertatsiyadagi tahlillar va o'rganilgan muammolar echimini topish asnosida Yangi O'zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida o'rta maktab o'quvchi-yoshlari o'rtasida yuz berayotgan zo'ravonlik (bullying) holatlarini oldini olishga doir nazariy-amaliy izlanishlardan kelib chiqqan holda, quyidagi umumiy xuloslar ilgari surilgan:

1. O'zbek tilidagi "zo'ravonlik" tushunchasini kuch-qudratdan foydalangan holda, subyektning obyektga maqsadli ta'sirini anglatuvchi hodisa sifatida tushunilishi maqsadga muvofiq deyish mumkin;

2. Har qanday zo'ravonlikni ilmiy tadqiq qilishda uni boshqa hodisalardan farqlovchi uchta asosiy mezonni ajratib ko'rsatish kerak bo'ladi: 1) zo'ravonlik maqsadida vositalardan, shu jumladan o'zini jismoniy kuchidan ham foydalanish; 2) mazlumga ruhiy yoki ijtimoiy mazmundagi zarar etkazilganligi; 3) zo'ravonlik subyektiga zarar etkazish maqsadining mavjudligi;

3. Ta'lim muassasasida zo'ravonlik ehtimoli to'g'ridan to'g'ri va juda kuchli tarzda oiladagi ijtimoiy-psixologik muammolar bilan xususan, oiladagi zo'ravonlik munosabatlari tajribasi, ota-onalar bilan iliq munosabatlarning yo'qligi, o'zaro mehrsizlik va oila a'zolarining o'zaro birlashishi quyi darajada ekanligi, bola va boshqa oila a'zolari ustidan qat'iy nazorat o'rnatilganligi, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlashning etishmasligi kabilarga bog'liq yuz beradi;

4. Tajovuz ijtimoiy bo'shliqda bo'lmaydi va aynan ijtimoiy o'rganish nazariyasi inson tajovuzining oldini olish va boshqarishga imkon beradi. Shu boisdan, O'zbekiston o'rta maktablarda bulling holatlarini oldini olishda insonlararo ziddiyatlarni yumshatishning muqobil usullarini o'quvchilar xulqiga singdirilishi mumkin bo'lgan ko'rinishlarini o'rta ta'lim tizimining tarbiyaviy muhitiga singdirilishini ta'minlash lozim;

5. Bulling hodisasini oldini olishda ushbu faoliyatni alohida bir yo'nalish sifatida ajratib ko'rsatmasdan, jamiyatning qator ijtimoiy muammolarini hal qilish tizimining uzviy bo'g'ini sifatida qaralib, aynan aholi bandligi, ayollar va yoshlarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilish, voyaga etmaganlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish kabi masalalarni hal qilish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishga erishish, bunda yangi tashkil etilgan "mahalladagi yoshlar etakchisi" institutidan foydalanish mumkin;

6. O'zbekistondagi o'rta maktablarda tajovuzkorlik asosan o'zini tasdiqlash, sinfda o'zini ko'rsatish yoki ustunligini namoyish etish maqsadida amalga oshirilmoqda va asosan 13 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar ko'proq u yoki bu shakldagi bullingga duch kelmoqdalar va bu asosan to'g'ridan to'g'ri bulling – jismoniy zo'ravonlik, qo'rqitish yoki bilvosita – g'iybat va tuhmat ko'rinishlarida yuz bermoqda;

7. O'rta maktablarda bullingning barcha ko'rinishlari, bevosita jismoniy zo'ravonlikdan tortib, internet orqali kiberbullingacha kuzatilmoqda, zo'ravonlik asosan jismoniy jihatdan baquvvat va sport bilan muntazam shug'ullanuvchi tengdoshlari va ayrim o'qituvchilar tomonidan ham amalga oshirilmoqda, bu esa

o'quvchilarda yakkalanish va kamsitish hissi ostida ruhiy jabrlanishni yuzaga keltirmoqda;

8. Tarbiyaviy muhit bir necha darajadan iborat bo'lib, eng quyi darajasini bevosita subyektning o'zining atrofidagi ijtimoiy muhit tashkil qiladi. Bu ko'proq uning oilasi, maktab va mahalla doirasi bilan cheklanadi;

9. Maktabda o'qituvchilar bulling holatlarida uni oldini olishga harakat qilishadi, shu bilan birga o'qituvchilar va maktab ma'muriyati ushbu holatlarga jiddiy e'tibor qaratmaydilar va o'quvchilar birinchi navbatda ota-onalar, qarindoshlar va psixologlardan ko'proq yordam kutadilar.

Umumta'lim maktablarida bullingning oldini olish bo'yicha kompleks dasturlar ishlab chiqilib, joriy etilishi bunday holatlarning kamayishi va oldini olishga xizmat qiladi. Bulling ta'siriga tushgan yoshlar bilan ishlash, ularga yordam berish maqsadida umumta'lim maktablaridagi psixologlar va o'qituvchilarining qisqa muddatli maxsus kurslar orqali malakasi va mahoratini oshirish zarur. Ushbu maqsadlarga ershish uchun O'zbekistonda amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Umumta'lim muassasalarida bezorilik holatlarini operativ tarzda aniqlash, oldini olish va vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha birlamchi choralar ko'ruvchi ijtimoiy xodim yoki ijtimoiy o'qituvchi lavozimini joriy etish maqsadga muvofiq;

2. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar, o'qituvchilar, muassasa xodimlari va ota-onalar ishtirokida bullingning salbiy oqibatlari, uni oldini olish, ushbu holatlarda tomonlar qanday o'zini tutishi, psixologik ko'nikmalar va h.k. bo'yicha muntazam ravishda konsultatsion tadbirlar tashkil etish;

3. Rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda, O'zbekistonda muvaffaqiyatli bulling profilaktikasi dasturlarini mahalliy sharoitga moslashtirgan holda, o'rta ta'lim tizimiga joriy qilish;

4. Bulling profilaktikasida jamoatchilikning uyushgan sa'y-harakatlarini o'zida ifoda etuvchi maxsus dasturlar orqali bullingning oldini olish, bunda har bir davlat o'zlarining etnik xususiyatlari, ijtimoiy-tarixiy rivojlanganlik holatlari, mahalliy darajada muammoga yo'naltirilgan yondashuv va ko'p tarmoqli aralashuvni nazarda tutuvchi, sovuq qurollarni olib yurishni cheklash bo'yicha qonuniy choralar va shu kabilarni e'tiborga olgan holda milliy dasturlarni ishlab chiqish;

5. Maktabda bullingni baratarf etishga yordam beradigan zamonaviy usullar, xususan maktab psixologi bilan suhbat, dars vaqtidagi muhokamalar, "jamoat kelishuvi", birgalikda film tomosha qilish, teatr tomoshalari, insho yozish kabi turli usullar, ularning kombinatsiyalashgan holda qo'llanilishi yoki alohida holatda bo'lsada, vaziyatdan kelib chiqib foydalanish, bu jarayonda oshkorlikning muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olgan holda, barcha jarayonni o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan keng muhokama qilgan holda olib borish, profilaktika tadbirlarini boshlang'ich sinflarda ham, ularning yoshlariga mos ravishdagi usullarda tashkil qilish;

6. Zo'ravonlikka duch kelganda vaziyatni tahlil qilish va yordam so'rash muhim ekanligini e'tiborga olgan holda, jamoat tashkilotlari faoliyatini

jonlantirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida do'stona muhitni yaratish, "ishonch telefoni" ("bizga murojaat qiling") kabi anonim murojaatlarni ham an'anaviy, ham elektron shaklda qabul qilish imkonini beruvchi choralarni qo'llash orqali maktab o'quvchilarida har qanday murakkab vaziyatda katta yoshlilardan yordam so'ray olish muhtini yuzaga keltirish;

7. Ota-onalarning hayot tarzi bolaning bulling ta'siriga ostiga tushish yoki tushmasligini belgilab, bugungi kunda O'zbekiston o'quvchi-yoshlarida bullingga moyillikning asosiy omili oilada muhabbatning etishmasligi hamda oilaviy nizolar (janjallar) sabab yuz berayotganlini mahallalarda ishlayotgan Yoshlar etakchilari va maktab psixololari e'tiborga olish;

8. O'zbekiston maktablarida bulling profilaktikasi tizimining elementlari maktab jamoasi, ota-onalar va o'quvchilarning o'zlari bo'lib, bunda maktabda bulling holati zo'ravonlik sifatida qabul qilinishi va bu borada butun jamoa tomonidan bir xilda tushuniladigan umumiy tushuncha va kelishuvga erishilishi lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.20/30.12.2019.S.23.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО
УПРАВЛЕНИЯ ПРИ ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ИНСТИТУТ ПО ИЗУЧЕНИЮ ПРОБЛЕМ МОЛОДЕЖИ И
ПОДГОТОВКИ ПЕРСПЕКТИВНЫХ КАДРОВ ПРИ АГЕНТСТВЕ ПО
ДЕЛАМ МОЛОДЕЖИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

МАДРАХИМОВ АЛИШЕР МАХАМАДИБРОХИМОВИЧ

**СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ НАСИЛИЯ
(BULLYING) СРЕДИ ПОДРОСТКОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
ШКОЛАХ**

22.00.02– Социальная структура, социальные институты и образ жизни

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по социологическим наукам

ТАШКЕНТ – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2022.4.PhD/S80

Диссертация выполнена в Институте по изучению проблем молодежи и подготовки перспективных кадров при Агентстве по делам молодежи Республик Узбекистан.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по присуждению учёных степеней по политическим наукам (www.dba.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Юнусов Алишер Бобомурадович

кандидат социологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Абдуазимов Окилжон Уткурович

доктор социологических наук

Толипов Абдуғаффор Абдунабиевич

доктор философии в социологии (PhD)

Ведущая организация:

**Ташкентский государственный
экономический университет**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2024 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.20/30.12.2019.S.23.02 по присуждению научных степеней при Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 45. Тел.: (99871) 232-60-47, факс: (99871) 239-17-83; e_mail: info@dba.uz). Здание Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан, кафедра «Политические основы государственного управления»).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (зарегистрирована за № ___). Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 45. Тел.: (99871) 232-60-47; факс: (99871) 239-17-83); e_mail: info@dba.uz).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года.
(протокол реестра рассылки № ___ от «___» _____ 2024 года)

М.Б. Бекмуродов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор социологических наук, профессор

Ш.М.Содиқова

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор социологических наук, профессор

Т.Б. Матибаев

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор социологических наук.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации.

Во всем мире межличностное насилие среди молодежи, особенно среди подростков, групповой или индивидуальный буллинг среди школьников рассматривается как трагедия, которая влечет за собой серьезные последствия в обществе. По данным ВОЗ, ежегодно в результате различных форм насилия во всем мире гибнет 1,3 млн. человек, что составляет 2,5% всех смертей. Насилие является четвертой по значимости причиной смерти среди населения в возрасте 15-44 лет¹. Кроме того, миллионы людей являются жертвами насилия, не заканчивающегося смертью, - психической, экономической, сексуальной агрессии, школьной, групповой или индивидуальной агрессии, домогательств, изоляции, травли, что сегодня тормозят их развитие и вызывают тяжелые последствия в будущем. Дети, ставшие жертвами насилия в детском и подростковом возрасте, постоянно находятся под угрозой того, что в будущем они либо сами станут склонными к насилию, либо станут жертвами насилия. Поэтому научные исследования по профилактике насилия и буллинга среди подростков вызывают особый интерес в мировом научном сообществе.

На сегодняшний день реализован ряд профилактических программ, основанных на подходах «аномии» и «девиантного поведения» (Э.Дюркгейм, Р.Мертон), «социального обучения» (А. Бандура) и психоанализа (Э.Фромм), теоретических подходов «агрессивного поведения» (К.Лоренц), изучивших феномен буллинга среди школьников. В частности, на организацию профилактики буллинга в школах сегодня направлены исследования программы Olweus Bullying Prevention Program (Norway), Positive Action (USA), SAVE (Spain), Bulli & Pupe (Bullies and Dolls) (Italy), Donegal (Ireland).

